

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13863468>

SPORT HUQUQIDA MEDIATSIYANING QO‘LLANILISHI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

Abduxoliqova Aziza Uktam qizi

e-mail: azizauktamovna97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri sifatida e'tirof etiladigan mediatsiyaning bugungi kunda nufuzi boshqa sudlardan boshqacha tarzda nizoga huquqiy yechim bera olishi bilan ajralib turibdi. Sportning ommalashishi sari unda nizolar ham ko'payib bormoqda. Shu sababli maqolada mazkur muammolarni sudlar, hakamlik sudlari va arbitrajlar bilan bir qatorda mediatsiya orqali hal qilinishi mumkinligi ko'rib chiqiladi. Mediatsiyaning afzalliklari bilan bir qatorda, uning mavjud kamchiliklari ham ko'rsatilib, uni bartaraf etish muammolari muhokama qilinadi va mediatsiya institutining xalqaro miqyosda rolini oshirish takliflari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mediatsiya, sport arbitraji, mediativ kelishuv, konsensus, hakamlik sudlari, etika qo'mitasi.

ANNOTATION

Mediation, which is recognized as one of the alternative methods of dispute resolution, is distinguished today by the fact that it can provide a legal solution to a dispute in a different way than other courts. As the sport becomes more popular, conflicts in it are also increasing. Therefore, the article examines the possibility of solving these problems through courts, arbitration and arbitration, as well as through mediation. In addition to the advantages of mediation, its shortcomings are also shown, the problems of its elimination are discussed, and suggestions for increasing the role of the mediation institution at the international level are considered.

Key words: mediation, sports arbitration, mediation agreement, consensus, arbitration courts, ethics committee.

АННОТАЦИЯ

Медиация, признанная одним из альтернативных методов разрешения споров, сегодня отличается тем, что она может обеспечить юридическое решение спора иным способом, чем другие суды. По мере того, как спорт становится все более популярным, конфликты в нем также увеличиваются. Поэтому в статье рассматривается возможность решения данных проблем через суд, третейский и третейский суд, а также посредством медиации. Помимо преимуществ медиации показаны и ее недостатки, обсуждаются проблемы ее устранения, а также рассматриваются предложения по повышению роли института медиации на международном уровне.

***Ключевые слова:** медиация, спортивный арбитраж, медиативное соглашение, консенсус, арбитражные суды, комитет по этике.*

KIRISH

Sport huquqi so‘nggi yillarda sport faoliyati va musobaqalarida yuzaga keladigan huquqiy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sport sohasida tez-tez uchraydigan nizolar, birinchi navbatda shartnomaviy masalalar, tijorat va mehnatga oid nizolarda, shuningdek sport tashkilotlariga a‘zolikdan kelib chiqadigan nizolarni bartaraf etishda mediatsiyaning roli kundan kunga o‘smoqda. Bu nizolarni sudlarda hal qilish murakkab va uzoq davom etishi mumkinligi sababli mediatsiya — sport huquqida tezkor va samarali nizolarni hal qilish usuli sifatida keng ommalashmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mediatsiya tushunchasi bugungi kunda keng ommalashayotgan bo‘lishiga qaramasdan, uning aniq ta’rifi deyarli hech qaysi huquqiy hujjatda mavjud emas. Bugungi kunda dunyoning 60 dan ortiq davlatida mediatsiya ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ammo uning aniq ta’rifi ishlab chiqilmaganligini ko‘rish mumkin. Biz bir qancha adabiyotlardan foydalangan holda uning eng maqbul ta’rifini keltirishga harakat qilamiz.

Mediatsiya – bu yarashuv tartib-taomilining maxsus shakli bo‘lib, unda taraflar uchinchi, betaraf, xolis mediator ko‘magida konsensus (yakdillik, kelishuv)ga intilib,

ular o'rtasidagi jiddiy kelishmovchiliklarning o'zaro manfaatli yechimini birgalikda ishlab chiqadilar¹.

Yuqoridagi fikrlardan shu ma'lum bo'ladiki, mediatsiya nizoni mediator ko'magida ikki tomonning ham manfaatini ko'zlab, o'zaro kelishuvga erishish shakli hisoblanadi. Sport alohida avtonomiyaga ega bo'lganligi sababli, undagi ichki nizolar federatsiyalar, assotsiatsiyalar ichki etika qo'mitalari ishtirokida, CAS(Nizolarni hal qilish palatasi) FIFA va FIFA o'yinchilarning maqomi qo'mitasi, WBC, FIBA va XOQ, va boshqa sport nizolarini hal qiluvchi tashkilotlar ko'magida hal etiladi². Biroq bu kabi nizolarni hal etish juda uzoq va ko'p mablag' talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Misol uchun, Sportdagi nizolarni hal qilish palatasi tomonidan match fixingga oid ishlar juda ham ko'p muddatda ko'rib chiqilgan. Ba'zi ishlar to'rt yildan yeti yilgacha davom etishi mumkin. Bu kabi narsalar mediatsiyaning boshqa sohalar singari sport huquqida ham keng qo'llanilishiga zaruriyat tug'diradi.

NATIJALAR

Sport huquqida mediatsiyaning afzalliklari:

1. Tezkorlik va samaradorlik. Sportdagi nizolarni hal qilish, unga huquqiy yechim berish uzoq vaqt davom etishi mumkin bo'lgan jarayon hisoblanadi, ayniqsa sport nizolarida vaqt juda muhim omil hisoblanadi. Misol uchun ma'lum bir sportchining klub bilan tuzgan shartnomasi muddati tugashi yoki shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni tezkorlik bilan hal qilish sportchi uchun boshqa klub bilan yangi shartnoma tuzish imkonini tezroq amalga oshirilishiga olib keladi. Musobaqalar, mavsumlar va tayyorgarlik davrlari qisqa muddatga ega bo'lgani uchun, mediatsiya sportchilar va tashkilotlarga tezkor yechim taklif qiladi³. Chunki mediatsiyada vaqt muhim omil hisoblanadi.

2. Maxfiylik. Bizga ma'lumki, mashhur sportchilar va turli xil klublarning faoliyati ommaviy axborot vositalari e'tiborida bo'ladi. Ularning faoliyatidagi deyarli

¹Медиация: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), катта ўқитувчи, профессионал медиатор А.А.Хакбердиев – Тошкент: ТДЮУ, 2022. – Б.131

² The promise of mediation in sport – related disputes. Mordehai Mironi: Published online: 18 october 2016 T.M.C. Asser Instuut 2016.

³ Hesse V (2014) Is mediation suitable to resolve sport related disputes? <http://www.lawinsport.com>

har bir narsa o'v da yoritiladi. Sud jarayonlari odatda ochiq bo'ladi va uni jamoatchilikdan yashirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Mediatsiya esa maxfiylikni ta'minlaydi. Bu sportchilar va tashkilotlar uchun nizolarni jamoatchilik ko'zidan yiroqda hal qilish imkonini beradi.

3. Nizoni hal qilishda tomonlarning faol ishtiroki. Mediatsiya jarayoni shunday jarayonki, unda tomonlar bevosita ishtirok etib, o'z qarashlarini bildirish va o'zaro kelishuvga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu yerda mediatorning asosiy vazifasi ikkala tomonning ham fikrlarini eshitib, ularning xohishlarini inobatga olib, qonun doirasida huquqiy yechim taklif qilish hisoblanadi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagicha takliflarni tavsiya qilish mumkin:

1. Mediatsiyani ommalashtirish bo'yicha targ'ibot ishlarini amalga oshirishni kuchaytirish lozim. Bunda sportchilar va sport tashkilotlari o'rtasida mediatsiya jarayoni haqida tushuncha va bilimlarni kengaytirish muhim sanaladi. Mediatsiyaning boshqa vakolatli tashkilot va sudlardan afzalliklari, tezkorligi va samaradorligi to'g'risida ma'lumot beruvchi seminarlar, treninglar va axborot kompaniyalari tashkil etilishi kerak.

2. Mediatsiya xizmatlarini ko'rsatadigan mutaxassislar tayyorlaydigan kurslar va o'quv dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Chunki sport huquqi sohasida ixtisoslashgan mediatorlarni tayyorlash juda muhimdir. Mediatorlar sport nizolari va ularning yuridik asoslarini chuqur tushunishlari kerak. Bu mediatorlar sportchilar va tashkilotlar o'rtasida paydo bo'ladigan murakkab nizolarni hal qilishda samarali xizmat qiladi.

3. Mediatsiya jarayonini rasmiylashtirish muhim sanaladi. Sport tashkilotlari o'z nizomlarida mediatsiya jarayonini rasmiylashtirishlari va uni nizolarni hal qilishning asosiy usullaridan biri sifatida belgilashlari lozim. Bu sportchilarning nizolarni hal qilish uchun sudga murojaat qilish o'rniga mediatsiyani tanlashiga sababchi bo'ladi.

4. Sport nizolarida hakamlik sudi va mediatsiyani uyg'unlashtirish bu institutning taraflar tomonidan tanlanishida yana bir asos bo'lishi mumkin. Hakamlik sudi jarayoniga mediatsiya elementlarini kiritish mumkin. Bu orqali nizolarni hal

qilishda mediatorlarning ishtirokini ta'minlash va hakamlik sudiga murojaat qilishdan oldin mediatsiya jarayonini majburiy qism sifatida ko'rib chiqishni nizomlarga kiritish mediatsiya institutining ommalashishida muhim omil bo'lishi mumkin.

5. Mediatsiyaning xalqaro darajada qo'llanishi. Xalqaro sport tashkilotlari, jumladan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, FIFA FIBA va boshqa tashkilotlar sport nizolarida mediatsiyani targ'ib qilishi lozim. Bu sport huquqi tizimida mediatsiyani xalqaro miqyosda kengroq qo'llanishiga yordam beradi va ko'p tomonlama nizolarni hal qilish uchun mos vosita sifatida rivojlantiradi.

MUHOKAMA

Sport huquqida mediatsiyaning qo'llanishiga oid muammolar:

1. Mediatsiya haqida yetarli tushunchaning yo'qligi. Mediatsiya yangi institut bo'lganligi sababli, ko'plab sport tashkilotlari va sportchilar mediatsiya jarayoni haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar. Ko'pchilik mediatsiyani sud jarayonidan farqli o'laroq, nizo hal qilishda kam samarali va ta'sir kuchiga ega emas deb hisoblashadi.

2. Barcha tomonlarning mediatsiyaga ya'ni kelishuvga rozi bo'lishi zarurati. Mediatsiyani tanlash va nizoni mediativ yo'l bilan hal qilish ixtiyoriy jarayon bo'lgani uchun, ikkala tomon ham ushbu jarayonda ishtirok etishga rozilik berishi kerak. Agar bir tomon mediatsiyaga qarshi bo'lsa, jarayon boshlanishi ham mumkin emas. Bu sportda nizolarni hal qilishni murakkablashtiradi, chunki hamma tomonlar ham mediatsiyani qabul qilavermaydi. Chunki unga ishonch juda ham kam deb hisoblashadi.

3. Yuridik va texnik murakkabliklar. Sport huquqida yuzaga keladigan nizolar ko'pincha murakkab yuridik va texnik jihatlariga ega bo'ladi. Mediatorlar har doim ham bu sohadagi maxsus bilimlarga ega bo'lmasligi mumkin, bu esa nizoni to'g'ri hal qilishni qiyinlashtiradi. Chunki mediatorlarni tayyorlaydigan maxsus ilmgohlar mavjud emas. Sport mediatorlarining ko'pchiligi nafaqadagi sobiq yuristlar va sport tashkilotlarida yillar davomida ishlagan shaxslar hisoblanadi. Ular asosan 50-60-yoshdan oshgan kadrlar hisoblanadi.

4. Hakamlik sudlarining ustunligi. Sport huquqida nizolarni hal qilishda hakamlik sudlari keng tarqalgan. Xalqaro Sport Arbitraj Sudi (CAS) kabi tashkilotlar sport nizolarini hal qilishda katta rol o'ynaydi¹. Chunki hakamlik sudlarida chiqarilgan qarorlarning ijrosini ta'minlash qat'iy hisoblanadi va murakkabliklar keltirib chiqarmaydi. Ammo mediatsiyada mediativ kelishuvning natijasini ta'minlash ixtiyoriy hisoblanadi. Agar tomonlardan biri kelishuvni bajarishdan bosh tortsa, mediativ kelishuv bo'lmagan deb hisoblanadi. Shu sababli mediatsiya bu sudlarga nisbatan kamroq tanlangan usul bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Sport huquqida mediatsiyaning qo'llanilishi sportchilar, tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni tez va samarali hal qilishning muhim vositasi bo'lishi mumkin. Biroq, mediatsiyaning kengroq qo'llanilishi uchun bir qator muammolarni hal qilish va sportchilar, tashkilotlar o'rtasida mediatsiya jarayoni haqida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish zarur. Ushbu maqolada keltirilgan taklif va tavsiyalar mediatsiyani yanada samarali qilish va sport huquqida uning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mediatsiya: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PHD), katta o'qituvchi, professional mediator A.A. Xaqberdiev – Toshkent: TDYU, 2022. – B.131
2. The promise of mediation in sport – related disputes. Mordehai Mironi: Published online: 18 october 2016 T.M.C. Asser Instuut 2016
3. Blackshaw I (2002b) Sport and mediation. Int Sports Law J 2002/2:17 T.M.C Accer Press, Hague
4. Hesse V (2014) Is mediation suitable to resolve sport related disputes? <http://www.lawinsport.com>

¹ Blackshaw I (2002b) Sport and mediation. Int Sports Law J 2002/2:17 T.M.C Accer Press, Hague